



Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (2025- yil yanvar-sentabr)

2025- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 691 tani, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko'rsatkichlarida aks ettirilgan. Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8 450,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga o'sdi. Shundan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 518,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 125,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 280,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 115,3 %), savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tovar aylanmasi 5 651,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 105,3 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari

O'sish sur'ati, % da

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo aylanmasi




Ulushi, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 6,1 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari 27,0 % ni, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo aylanmasi 66,9 % ni tashkil qildi.


Chakana savdo aylanmasi – aholiga shaxsiy, oilaviy, maishiy va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shu kabi foydalanish uchun sotilgan tovarlarning qiymati hisoblanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari dinamikasi (2025- yil yanvar-sentabr)



So'nggi 5 yillikda (2021-2025- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bu davrda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,3 % ga o'sgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi oylar kesimida (2025- yil yanvar-sentabr)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hissasiga to'g'ri keldi va 30,3 % ni tashkil etdi, Zomin tumani 10,8 % ni, Baxmal tumani 10,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumani 3,1 %, Arnasoy tumani 2,8 % ni va Yangiobod tumani 1,3 % bilan eng kam ulushga ega bo'ldi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining
hajmi va o'sish sur'atlari, % da
(2025- yil yanvar-sentabr)**

	<i>Jami mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, % da</i>
--	--------------------------------	---	--	---	--	---

Jizzax viloyati	8 450,3	108,9	518,9	125,4	7 931,4	108,0
------------------------	----------------	--------------	--------------	--------------	----------------	--------------

shahar:


Jizzax sh	2 436,6	111,3	161,9	109,7	2 274,7	111,4
-----------	---------	-------	-------	-------	---------	-------

tumanlar:

Arnasoy	224,8	104,3	2,6	134,5	222,2	104,0
Baxmal	807,0	106,1	26,5	3,9 m.	780,5	103,6
G'allaorol	783,0	108,4	11,9	44,0	771,1	110,9
Sharof Rashidov	798,2	107,4	13,7	101,3	784,5	107,5
Do'stlik	359,8	106,5	2,7	130,0	357,1	106,4
Zomin	871,4	109,8	178,7	129,7	692,7	105,6
Zarbdor	384,9	104,5	3,3	141,3	381,6	104,2
Zafarobod	245,6	109,3	1,9	122,7	243,7	109,2
Mirzacho'l	261,0	109,1	22,9	6,2 m.	238,1	101,1
Paxtakor	457,5	109,7	2,0	129,8	455,5	109,6
Forish	310,2	110,0	14,0	4,3 m.	296,2	106,3
Yangiobod	104,6	108,0	1,6	144,0	103,0	107,6

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd so'm</i>	<i>2024- yi yanvar-sentabriga nisbatan % hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan % hisobida</i>
Jami	8 450,3	108,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	518,9	125,4	6,1
kichik tadbirkorlik	2 280,4	115,3	27,0
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	3 594,0	103,4	42,5
Uyushmagan savdo	2 057,0	108,9	24,4


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan chakana tovar aylanmasi

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan % hisobida</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan % hisobida</i>
Jizzax viloyati	8 450,3	108,9	5 456,4	106,8
<i>shahar:</i>				
Jizzax shahri	2 436,6	111,3	12 103,9	109,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	224,8	104,3	4 522,4	102,8
Baxmal	807,0	106,1	4 595,7	103,9
G‘allaorol	783,0	108,4	4 078,0	106,3
Sharof Rashidov	798,2	107,4	3 176,4	104,8
Do‘stlik	359,8	106,5	5 045,7	105,0
Zomin	871,4	109,8	4 697,7	107,3
Zarbdor	384,9	104,5	3 960,2	102,4
Zafarobod	245,6	109,3	4 481,8	107,7
Mirzacho‘l	261,0	109,1	4 612,0	107,5
Paxtakor	457,5	109,7	5 519,2	107,9
Forish	310,2	110,0	3 095,4	108,5
Yangiobod	104,6	108,0	3 453,0	107,0

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

Viloyat chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘shish sur‘atilari Jizzax shahri (109,1 %), Forish (108,5 %) va Paxtakor (107,9 %) tumanlarida qayd etildi.


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari



Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida 108,0 % ga o'sish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va yirik korxonalar o'sish sur'ati 125,4 % ni tashkil qildi.



Viloyatning aksariyat hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (111,3 %), Forish (110,0 %), Zomin (109,8 %), Paxtakor (109,7 %), Zafarobod (109,3 %) tumanlarida, yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Arnasoy tumanida (104,3 %) kuzatildi.




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar tovar aylanmasining 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 125,4 % ni va hajmi 518,9 mlrd so'mni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 6,1 % ulushiga ega bo'ldi.

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Eng kam ulushga ega hududlar, % da

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob- kitoblarga ko'ra 7 931,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,0 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,9 % ni tashkil etdi.


Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi (2025- yil yanvar-sentabr)



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (141,1 mlrd so'm), Sharof Rashidov (76,5 mlrd so'm), Zomin (42,6 mlrd so'm) hamda G'allaorol (26,7 mlrd so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (3,1 mlrd so'm), Arnasoy (5,8 mlrd so'm) va Zafarobod (7,3 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da	2024- yil yanvar- sentabriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati *	5 183,5	115,4	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahri	141,1	36,9	111,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5,8	1,5	109,0
Baxmal	21,9	5,7	105,4
G'allaorol	26,7	7,0	112,4
Sharof Rashidov	76,5	20,0	108,8
Do'stlik	12,8	3,3	109,9
Zomin	42,6	11,1	101,4
Zarbdor	12,5	3,3	110,1
Zafarobod	7,3	1,9	109,9
Mirzacho'1	8,4	2,2	106,7
Paxtakor	12,4	3,2	110,8
Forish	11,8	3,1	109,6
Yangiobod	3,1	0,8	108,2

Eng yuqori hajmga ega hududlar



Jizzax shahri -
141,1 mlrd so'm
Sh.Rashidov tumani -
76,5 mlrd so'm
Zomin tumani -
42,6 mlrd so'm

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 727,7 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 174,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,3 % ga o'sdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 3 553,2 mlrd so'mga yetdi va o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil etib, umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 95,3 % ni tashkil qildi.

	<i>Hajmi, (mlrd so'm)*</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da</i>
Jizzax viloyati *	3 727,7	100,0	105,7
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahri	1 788,6	52,3	95,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	106,0	3,1	113,6
Baxmal	195,7	5,7	121,2
G'allaorol	137,3	4,0	105,0
Sharof Rashidov	516,3	15,1	110,6
Do'stlik	79,7	2,3	111,7
Zomin	399,5	11,7	139,9
Zarbdor	87,5	2,6	108,4
Zafarobod	14,2	0,4	107,8
Mirzacho'l	27,6	0,8	109,7
Paxtakor	28,0	0,8	110,7
Forish	28,3	0,8	110,5
Yangiobod	14,3	0,4	107,1

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.


Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini Zomin (139,9 %), Baxmal (121,2 %) va Arnasoy (113,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yirik va kichik biznes korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 174,5 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 160,3 %), kichik biznes korxonalarini va mikrofirmalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 553,2 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 103,9 %) tashkil etdi.

	<i>Jami mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, % da</i>
Jizzax viloyati	3 727,7	105,7	174,5	160,3	3 553,2	103,9
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 788,6	95,9	32,7	57,9	1 755,9	97,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	106,0	113,6	0,1	306,1	105,9	113,5
Baxmal	195,7	121,2	0,3	292,7	195,4	121,1
G‘allaorol	137,3	105,0	14,5	57,2	122,8	116,5
Sharof Rashidov	516,3	110,6	1,5	931,1	514,8	110,3
Do‘stlik	79,7	111,7	0,2	239,1	79,5	111,6
Zomin	399,5	139,9	109,1	639,5	290,4	108,2
Zarbdor	87,5	108,4	0,5	566,6	87,0	107,9
Zafarobod	14,2	107,8	0,1	32,9	14,1	108,9
Mirzacho‘l	27,6	109,7	0,1	86,1	27,5	109,9
Paxtakor	28,0	110,7	0,6	100,8	27,4	110,9
Forish	28,3	110,5	0,4	151,0	27,9	110,2
Yangiobod	14,3	107,1	0,1	217,9	14,2	106,7

Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (52,3 %) hisoblanadi. Shuningdek, Sharof Rashidov (15,1 %) va Zomin (11,7 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Paxtakor (0,8 %), Forish (0,8 %), Yangiobod (0,4 %) hamda Zafarobod (0,4 %) tumanlari esa eng kam ulushga ega bo'ldi.

Shundan, yuqori hajmlar Jizzax shahrida (1 788,6 mlrd so'm), Sharof Rashidov (516,3 mlrd so'm), Zomin (399,5 mlrd so'm), Baxmal (195,7 mlrd so'm) hamda G'allaorol (137,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd qilindi.